

TURKIY ADABIYOTDA DINNING O'RNI HAMDA AHAMIYATI

*Ahmadova O'g'iloy Ozodqul qizi,
SamDU tayanch doktaranti (PhD)
ahmadovaogiloy93@gmail.com*

Annotatsiya. Ushbu maqolada turkiy adabiyotda dinning o'rni va ahmiyati tarixiy va zamonaviy nuqtai nazardan yoritilgan. Dastlabki yozma yodgorliklardan tortib, klassik va zamonaviy adabiyotgacha bo'lgan davrlar qamrab olinib, Qur'on, hadis va tasavvuf g'oyalari asosida shakllangan diniy motivlarning badiiy ifodasi tahlil qilingan. Shuningdek, boshqa adabiy makonlar bilan qiyosiy tahlil orqali diniy g'oyaning universal mohiyati ochib berilgan.

Kalit so'zlar. Turkiy adabiyot, din, islam, tasavvuf, Qur'on, tasavvufiy she'riyat, zamonaviy adabiyot, diniy motivlar, axloq, falsafa.

TÜRK EDEBİYATINDA DİNİN YERİ VE ÖNEMİ

*Ahmadova O'g'iloy Ozodqul kizi,
SamDU doktora adayı (PhD)*

Özet. Bu makalede Türk edebiyatında dinin yeri ve önemi tarihî ve çağdaş bakış açısından ele alınmıştır. İlk yazılı eserlerden başlayarak, klasik ve modern edebiyat dönemleri kapsamış; Kur'an, hadis ve tasavvuf fikirleri temelinde şekillenen dini motiflerin edebî ifadesi analiz edilmiştir. Ayrıca, diğer edebî coğrafyalarla karşılaşılmalı analiz yoluyla dînî düşüncenin evrensel mahiyeti ortaya konmuştur.

Anahtar kelimeler. Türk edebiyatı, din, İslam, tasavvuf, Kur'an, tasavvufi şiir, modern edebiyat, dînî motifler, ahlak, felsefe.

РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ РЕЛИГИИ В ТЮРКСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ

*Ахмадова Угилой Озодкул кызы,
соискатель степени PhD, Самаркандского
государственного университета*

Аннотация. В данной статье рассматривается роль и значение религии в тюркской литературе с исторической и современной точек зрения. Проанализированы религиозные мотивы, выраженные в художественной форме, основанные на Коране, хадисах и суфийской философии – от ранних письменных памятников до классической и современной литературы. Также проведен сравнительный анализ с другими литературными традициями, раскрывающий универсальную суть религиозных идей.

Ключевые слова. Тюркская литература, религия, ислам, суфизм, Коран, суфийская поэзия, современная литература, религиозные мотивы, этика, философия.

THE ROLE AND IMPORTANCE OF RELIGION IN TURKIC LITERATURE

*Ahmadova O'g'iloy Ozodqul qizi,
PhD candidate, Samarkand state university*

Abstract. This article explores the role and significance of religion in Turkic literature from a historical and modern perspective. It analyzes the artistic expression of religious motifs derived from the Qur'an, hadiths, and Sufi philosophy, starting from early written monuments to

classical and contemporary literature. The article also presents a comparative analysis with other literary traditions, highlighting the universal essence of religious ideas.

Keywords. Turkic literature, religion, Islam, Sufism, Qur'an, Sufi poetry, modern literature, religious motifs, ethics, philosophy.

Turkiy adabiyot – o‘z ildizlari bilan qadim zamonlarga borib taqaluvchi, boy tarixiy va madaniy an’analarni o‘zida mujassam etgan adabiy merosdir. Bu adabiyotning shakllanishi va rivojlanishida dinning, xususan islam dinining o‘rni beqiyosdir. Turkiy xalqlarning diniy dunyoqarashi, e’tiqodi, axloqiy qadriyatları va ilohiy tushunchalari adabiyot orqali ifoda topgan. Ayniqsa, Qur’oni karim, hadislar, fiqh ilmi va tasavvuf adabiyotda asosiy ruhiy manba bo‘lib xizmat qilgan[5, 23 b]. Ushbu maqolada turkiy adabiyotda dinning o‘rni va uning adabiy jarayonga ko‘rsatgan ta’siri tahlil qilinadi.

Dastlabki bosqich: Shamanizm va e’tiqod izlari. Islomdan avvalgi davrda turkiy xalqlar orasida shamanizm, totemizm va tabiatga sig‘inish keng tarqalgan edi. Bu qarashlar Orxon-Enasoy bitiklarida (VIII asr) o‘z ifodasini topgan. Ushbu yodgorliklarda osmon tangri, ruhlar, ajoddolarga sig‘inish kabi diniy-falsafiy tushunchalar mavjud bo‘lib, ularning adabiy ifodasi qadimgi turkiy e’tiqod asosida yasalgan. Dastlabki turkiy adabiyotda ruhiyat, tangriga shukronalik, qahramonlarning ilohiy kuch bilan aloqasi an’anaviy tarzda yoritilgan.

Islom dini va yangi adabiy bosqich. VIII – X asrlardan boshlab, turkiy xalqlar orasida islom dini asta-sekin tarqala boshladi. Bu jarayon Qoraxoniylar davlati davrida jadallahdi. Islom dini bilan tanishuv, birinchi navbatda, adabiy til va uslubga ta’sir qildi. Adiblar Qur’on va hadislardan ilhom olib, adolat, ilmlilik, sabr, halollik kabi fazilatlarni targ‘ib eta boshladilar. Xususan, Yusuf Xos Hojib diniy-adabiy tafakkur vakili sifatida ma’lum va mashhur. Adibning XI asrda yozilgan “Qutadg‘u bilig” (“Saodatga eltuvchi bilim”) asari islomiy axloq va siyosiy-falsafiy g‘oyalarni ilgari suradi. Muallif Yusuf Xos Hojib insoniy fazilatlar, adolatli boshqaruv, taqvo va ilmga asoslangan jamiyat haqidagi qarashlarini bayon qiladi. [1, 125-130b.] Bu asar o‘z davrida adabiyot orqali diniy va siyosiy ongni uyg‘otuvchi manba sifatida qadrlangan. Shuningdek keyinchalik turkiy adabiyotda tasavvuf atamasi keng tarqala boshlandi. XII asrda yashagan Ahmad Yassaviy tasavvufning eng yorqin vakillaridan biri bo‘lib, u yaratgan “Hikmatlar” diniy-falsafiy ruhdagi she’rlar to‘plamidir. Bu asarlarda Allohga muhabbat, nafs bilan kurash, axloqiy tozalik, sabr-toqat, mehnat va zohidlik targ‘ib qilinadi. Hikmatlar xalq orasida darslik, pand-nasihat va zohiriytasavvufiy ilmlarning asosiy manbaiga aylangan. Ahmad Yassaviy maktabi keyingi davrlarda ham davom ettirildi. Sulaymon Boqirg‘oniy, Mashrab, Buloqiy, Xoja Hofiz, Alisher Navoiy singari adiblar tasavvufiy g‘oyalarni badiiy ifoda qilish orqali xalqning ma’naviy tarbiyasiga ulkan hissa qo‘shdilar. Alisher Navoiy o‘zining “Lison ut-tayr”, “Munojot”, “Arba’in” singari asarlarida tasavvufiy ramzlar, Qur’on hikmatlari va axloqiy pand-nasihatlar orqali diniy g‘oyalarni keng yoritdi. [3, 210-225 b.]

Nafaqat qadimgi turkiy adabiyot, balki zamonaviy adabiyotga ham din o‘z ta’sirini yo‘qotmadidi. XX-XXI asrlarda turkiy xalqlar adabiyoti o‘z taraqqiyotining yangi bosqichiga chiqdi. Bu davrda siyosiy, ijtimoiy va madaniy jarayonlar bilan bir qatorda, diniy-ma’naviy yuksalish ham yuz berdi. Ayni paytda, din va tasavvuf mavzusi zamonaviy adabiyotda yangicha shakllarda, tahliliy va falsafiy ruhda namoyon bo‘la boshladi. Diniy qadriyatlar zamonaviy obrazlar, ijtimoiy mavzular, ruhiy izlanishlar orqali aks ettirildi. Misol tariqasida keltirishimiz mumkinki, Erkin Vohidov o‘z she’rlarida ma’naviy poklik, inson va Alloh o‘rtasidagi bog‘liqlik, muqaddaslik mavzularini chuqur yoritgan bo‘lsa, Abdulla Oripovning “Munojot”, “Qur’on so‘zlari” singari she’rlari diniy-falsafiy tafakkurning badiiy ifodasidir. Shuningdek, Muhammad Yusufning ko‘plab she’rlarida xalq dardi, Allohga yuzlanish, e’tiqod va sabr mavzulari tilga olingan. Nasr namoyondalaridan biri Tohir Malik asarlarida ham diniy g‘oyalarni bo‘rtib, ko‘zga tashlanib turadi. Bugungi turkiy adabiyotda tasavvuf falsafasi, ruhiy izlanish, “men” va “Alloh” o‘rtasidagi ma’naviy munosabatlar chuqur badiiy tahlil qilinmoqda. Shoirlar, yozuvchilar ma’naviy inqiroz, ichki ziddiyat, axloqiy tanlovlardan mavzularini diniy-falsafiy

yondashuvda olib berishmoqda. Bu orqali zamonaviy inson ruhiyatidagi bo'shliq, ma'naviy iztiroblar tasvirlanmoqda.

Turkiy adabiyotda din – bu adabiy hayatning ajralmas bo'lagi bo'lib, u nafaqat diniy bilimlarni, balki axloqiy, estetik va falsafiy qarashlarni ham shakllantirgan. Islom dini adabiyotga ruh, mazmun va maqsad baxsh etgan. Bugungi kunda bu adabiy merosni o'rganish, qadrlash va yosh avlodga yetkazish – ma'naviy merosni asrashning muhim yo'nalishlaridan biridir. Bugungi turkiy adabiyotda diniy obrazlar zamonaviy hayat, insoniy ruhiyat va ijtimoiy muammolar bilan uyg'unlashgan. Bu holat din va adabiyotning o'zaro ta'siri nafaqat tarixiy jarayon, balki doimiy ma'naviy ehtiyoj ekanini ko'rsatadi. Shunday ekan, diniy-ma'naviy adabiyotga e'tibor, uni o'rganish va yosh avlodga yetkazish – adabiy-ma'naviy taraqqiyotning muhim yo'nalishlaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u Bilig. –Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1990.- 480b. [125-130]
2. Ahmad Yassaviy. Hikmatlar. –Toshkent: Ma'naviyat, 2002. - 240b. [35-40b.]
3. Navoiy, Alisher. Arba'in, Lison ut-tayr. –Toshkent: Fan, 1980. -376b. [210-225]
4. Rabg'uziy. Qissas ul-anbiyo (Payg'ambarlar qissasi). –Toshkent: Sharq, 2001. - 344b.
5. Karimov, A. va boshqalar. O'zbek adabiyoti tarixi. 1–2 jildlar. – Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2010. - 856b.
6. G'oyibnazarov, S. Tasavvuf va adabiyot. – Toshkent: O'qituvchi, 1998. - 210b. [89b.]
7. Xo'jayev, A. Islom madaniyati va badiiy tafakkur. – Toshkent: Ma'naviyat, 2005. - 192 b. [123b.]